

Sodda Gaplarning Diskurs Turlaridagi Pragmatik Transformatsiyasi
Xalqaro Nordik universiteti “Chet tillar” kafedrasи
katta o‘qituvchisi Barno Djamatdinova Ramizitdinovna

Annotatsiya: Mazkur tezisda sodda gaplarning turli diskurs turlarida qanday pragmatik transformatsiyaga uchrashi va bu jarayonda til hamda madaniyatning o‘zaro ta’siri tahlil etiladi. Rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy va ommaviy axborot vositalari diskurslarida sodda gaplarning kommunikativ yuklanishi turlicha bo‘lib, ular o‘ziga xos lingvopragmatik xususiyatlarga ega. Ushbu tezisda sodda gaplarning pragmatik transformatsiyasiga sabab bo‘luvchi omillar, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda madaniy kontekstga bog‘liq o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: sodda gap, diskurs, pragmatik transformatsiya, til va madaniyat, rasmiy diskurs, norasmiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, kommunikativ moslashuv, madaniyatlararo muloqot.

Til insoniyatning eng muhim kommunikativ vositalaridan biri bo‘lib, u nafaqat axborot almashinuvini ta’minlaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy munosabatlarni shakllantiradi. Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirib, inson tafakkuri va nutq faoliyatining asosiy jihatlarini belgilaydi. Ushbu tezisda sodda gaplarning turli diskurs turlarida qanday pragmatik transformatsiyaga uchrashi va bu jarayonda til hamda madaniyatning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi.

Tilshunoslikning kommunikativ-pragmatik yo‘nalishi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, til birliklarining kontekstga moslashuvi va nutqiy aktlar orqali qanday ma’no kasb etishini o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, gap strukturalarining diskursga mos ravishda o‘zgarishi, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish bugungi tilshunoslik tadqiqotlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Sodda gaplar ham turli diskurs sharoitlariga qarab ma’no, intonatsiya va pragmatik funksiya jihatidan o‘zgarishi mumkin. Ushbu

o‘zgarishlar til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Pragmatik transformatsiya, odatda, gapning maqsadi, auditoriya, nutqiy vaziyat va madaniy kontekstga bog‘liq holda yuzaga keladi. Masalan, rasmiy nutqda sodda gaplar aniq va ixcham bo‘lishi talab etilsa, norasmiy diskursda ular emotsiyal rang-baranglik va ifodalilik kasb etishi mumkin. Bundan tashqari, pragmatik transformatsiya turli tillar va madaniyatlar kesimida ham farqlanadi. Bir madaniyat uchun odatiy bo‘lgan nutqiy struktura boshqa madaniyatda boshqacha qabul qilinishi yoki butunlay o‘zgacha pragmatik vazifani bajarishi mumkin.

Til insoniyatning asosiy kommunikativ vositasi bo‘lib, u orqali insonlar nafaqat ma’lumot almashadi, balki o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan sotsiopragmatika tilning ijtimoiy kontekstdagi ishlatalishini va uning pragmatik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, sodda gaplarning turli diskurs turlaridagi transformatsiyasi tilning dinamik tabiatini va uning madaniy, ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Sodda gaplar nutqning eng asosiy va keng tarqalgan shakli bo‘lib, ular oddiy tuzilishi va aniq ma’nosi bilan ajralib turadi. Biroq, turli diskurs turlarida (masalan, rasmiy, norasmiy, badiiy, siyosiy) sodda gaplar pragmatik jihatdan o‘zgarishga uchraydi. Bu o‘zgarishlar nafaqat tilning grammatik va leksik jihatlarida, balki uning ma’no va funktsiyalarida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, bir xil sodda gap norasmiy suhbatda do‘stona munosabatni ifodalashi mumkin bo‘lsa, rasmiy diskursda u aniq va maqsadli xabar yetkazish vositasi sifatida ishlatalishi mumkin.

Madaniyat esa tilning shakllanishi va transformatsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Har bir madaniyat o‘ziga xos til qoidalari, nutq odatlari va pragmatik me’yorlarni shakllantiradi. Shuning uchun sodda gaplarning diskurs turlaridagi transformatsiyasini o‘rganishda madaniy kontekstni hisobga olish shart. Masalan, Sharq madaniyatida odob-axloq va hurmatni ta’kidlovchi ifodalar ko‘proq qo‘llanilsa, G‘arb madaniyatida aniqlik va qisqalik ustuvor bo‘lishi mumkin.

Tilshunoslikda gap turlari turli lingvistik va kommunikativ omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi. Sodda gaplar diskurs turlarida muayyan pragmatik maqsadlarga erishish uchun turli transformatsiyalarga uchraydi. Jumladan, rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy va ommaviy axborot vositalaridagi nutqiy kontekstga qarab, sodda gaplar turli funksiyalarga ega bo‘lishi mumkin.

Rasmiy diskursda sodda gaplar odatda aniq, lo‘nda va ravon bo‘lishi talab etiladi. Hukumat hujjatlari, qonunlar yoki rasmiy bayonotlarda sodda gaplar bevosita va aniq ifoda usuli sifatida ishlatiladi. Masalan, “Majlis ertaga soat 10:00 da boshlanadi” kabi gaplar rasmiy manba nutqining xususiyatlarini namoyon etadi.

Norasmiy diskursda esa sodda gaplar emotsional bo‘lishi va nutqiy kontekstga moslashishi mumkin. Do‘stlar o‘rtasidagi muloqotda gap sodda, ammo emotsional bo‘lishi, shuningdek, nutqni jonlantiruvchi unsurlar bilan boyitilishi kuzatiladi. Masalan, “Kecha juda charchadim, uyga kelib uqlab qoldim” kabi gaplarda rasmiy diskursga qaraganda o‘zgacha pragmatik yuk mavjud.

Ilmiy diskurs esa aniq tushuncha va mantiqiy bog‘liqlikni talab qiladi. Sodda gaplar ilmiy matnlarda obyektiv ma’lumot yetkazish uchun ishlatiladi: “Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, issiqlik ta’sirida molekulalar harakati jadallahadi”.

Badiiy diskursda esa pragmatik transformatsiya yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlarda sodda gaplar nutqning tabiiyligini saqlash, obraz yaratish va hissiy ta’sirni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Masalan, “Uning ko‘zлари yashil edi, U Jim qarab turardi” kabi gaplar sodda bo‘lsa ham, kuchli ekspressivlik kasb etgan.

OAV diskursida esa sodda gaplar axborotning tez va tushunarli yetkazilishi uchun ishlatiladi. Xususan, sarlavhalar va yangiliklar matnlarida sodda gaplardan keng foydalilanadi.

Tilshunoslikning zamonaviy pragmatik yo‘nalishlari shuni anglatadiki, gap tuzilmalari o‘z-o‘zidan ma’no kasb etmaydi, balki ularning semantik va pragmatik yuki konkret nutqiy kontekstda shakllanadi. Masalan, rasmiy diskursda sodda gaplarning lo‘nda va aniq bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etsa, norasmiy diskursda ular erkinlik va emotsionallik bilan boyitiladi. Ilmiy diskursda esa sodda gaplar

dalillarga asoslangan mantiqiy izchillikni saqlashi talab etiladi, badiiy diskursda esa ular tasviriylik va hissiy ta'sirni oshirish maqsadida ishlatiladi.

Sodda gaplarning diskurs turlarida pragmatik o'zgarishlarga uchrashining asosiylaridan biri ularning turli kommunikativ vazifalarni bajarishidir. Masalan, huquqiy matnlarda gapning aniq talqin qilinishi muhim bo'lsa, jurnalistik matnlarda axborotni ommaga tez yetkazish asosiylaridan biri hisoblanadi. Shu bois, sodda gaplarning diskurslar bo'yicha pragmatik transformatsiyasini chuqurroq o'rganish orqali til birliklarining nutqiy vaziyatga qanday moslashishini aniqlash mumkin.

Biroq, ushbu jarayonda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, madaniyatlararo muloqotda bir tilning pragmatik xususiyatlari boshqa til va madaniyat vakillari tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Bu esa kommunikativ tushunmovchiliklarga olib keladi. Masalan, ba'zi madaniy kontekstlarda bevosita gapirish qabul qilinadigan bo'lsa, boshqa madaniyatlarda bilvosita ifodalash odob normalariga mos keladi. Shu sababli, sodda gaplarning diskurslararo o'zgarishlarini madaniy jihatdan ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, diskurs turlarida pragmatik transformatsiyaning yetarlicha o'rganilmagan jihatlari ham mavjud. Masalan, texnologiyalar taraqqiy etishi bilan yangi kommunikativ muhitlar paydo bo'ldi va ular yangi diskurs turlarini shakllantirdi. Internet muhitida sodda gaplarning ishlatilishi, ularning qisqarishi, emotsional belgilar bilan boyitilishi va o'ziga xos semantik yuk orttirishi kuzatilmoqda. Shu bois, kelajakda internet diskursidagi pragmatik transformatsiyalarni ham batafsил o'rganish zarur.

Umuman olganda, sodda gaplarning turli diskurs turlarida qanday o'zgarishga uchrashi masalasi faqat lingvistik jihatdan emas, balki madaniy va sotsiolingvistik jihatdan ham muhim hisoblanadi. Bu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sodda gaplar kontekstga qarab semantik va pragmatik jihatdan o'zgarib boradi, auditoriyaga moslashadi va ma'lum kommunikativ maqsadlarga yo'naltiriladi. Ushbu masalani

chuqur o‘rganish lingvistika, tarjima amaliyoti va madaniyatlararo muloqot sohalarida katta ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

1. Khayitbaevich, D. K. (2024). Analysis of Word Transposition Types in English and Uzbek Languages. *Cognify: Journal of Artificial Intelligence and Cognitive Science*, 1(1), 59-65.
2. Mialkovska, L., Sternichuk, V., Yanovets, A., Hubina, A., Kyseliuk, N., Zabiiaaka, I., & Kriukova, Y. (2024). Linguistic and pragmatic aspects of communication in the modern media world. *Multidisciplinary Science Journal*, 6.
3. Hassan, B. E. A. (2024). Key Topics of Language Variation in Sociolinguistics, Stylistics, Pragmatics and Discourse Analysis. Cambridge Scholars Publishing.
4. Нарбекова, З., & Режапова, Н. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. *Архив научных исследований*, 2(1).
5. Kulmamatov, O. (2024). Uzbek askia—an expression of wit and wisdom. *Nordic_Press*, 3(0003).
6. Ramizitdinovna, D. B. (2024). DISCURSIVE ADAPTATION: SOCIOPRAGMATIC VIEW OF THE TRANSFORMATION OF SIMPLE PROPOSITIONS IN COMMUNICATIVE SPACE. *IQRO INDEXING*, 9(1), 593-597.
7. Ramizitdinovna, D. B. (2024). SEMANTIK STRUKTURANING TRANSFORMATSIYASI: DISKURS DINAMIKASIDAGI SODDA GAPLARNING SOTSIOPRAGMATIK KO'RINISHI. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(5), 21-25.